OLQISHLARGA KIMLAR LOYIQ...?

Sayfiddinova Maftuna Dilshod qizi
JDPI “Musiqa madaniyati” fakulteti Cholg’u ijrochiligi yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: M.Xolbekov Vokal va cholg’u ijrochiligi kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Hayot shu qadar qisqaki, undagi har bir qilgan ishimiz, ayni vaqtda ishimiz ham bir daqiqadan sòng o'tmishga aylanadi. Shunday ekan har bir inson òz hayotida qilgan har bir ishi uchun javobgardir. Men musiqa sohasida o'qiyotganim uchunmi, Yoki musiqaga mehrim uchunmi kòproq san'at sohasini va undagi kishilarni kòp kuzataman. "Sahna muqaddas, uning yerdan baland bòlishi faqatgina tomoshabinlar sahnadagi aktyorlarni bemalol kuzataolishi uchun emas, balki sahnadagi kishilarning madaniyati ham yuqoriroq bòlishi kerakligini anglatadi".

Kalit sòzlar: Qarsaklar, olqishlar, San'atkor, iste'dod, e'tiqod, e'tirof, urush yillari, yeti mahalla, sanoat.

Darhaqiqat inson qobiliyati va iste'dodi bilan sahnada obrò topsa, uning insoniy tuyǵulari va odamlarga nisbatan muomilasi uni Sahna ortida kimligini anglatadi. Insonning mukammali bo'lmaganidek, musiqa olamida ham mukammal San'atkorni uchratish qiyin. Har bir musiqa olamidagi shaxs o'zining kuchli tarafi bilan shuxrat qozonadi. Hech bir inson to'liq kuchsiz yoki har tomonlama kuchli bo'la olmaydi. Chunki musiqa juda ko'p tarmoqlarga ega soha hisoblanadi. San'atkor bo'lish, sahnada o'z san'atini namoyish qilish qiyin, shu sababli ba'zi noto'ǵri fikrda yuradigan kishilarni e'tiborga olmaganda, bizning xalqimiz san'atsevar musiqasevar san'atga oshufta kishilardir. Har bir muxlis san'atkorni o'z uchun mukammal deb hisoblab, uni yaxshi kòradi, u qilayotgan har bir ishni va hatti-harakatini, qilayotgan yaxshi-yu yomon ishlarini diqqat bilan kuzatib boradi. Muxlislarining ko'nglini topish, ularga yaxshi munosabatda bo'lish har bir san'atkorning muqaddas burchidir. Bu faqat sahnada emas, sahna ortida ham òzining san'atkorga xos madaniyati e'tiqodi uning jamiyatdagi òrni

beqiyos bo’lishi lozim. Lekin oxirgi vaqtlarda ba'zi bir qo'shtirnoq ichidagi “San'atkorlarimiz”ni agar san'at deb hisoblash mumkin bòlsa, sahnada maromiga yetkazib ijro etish òrniga "Muxlislardandan qarsak sòrash" holatlarini kòp uchratmoqdamiz. Bir misol: Bir uquvsiz boǵbon bor edi. U boǵbonlik San'atidan bexabar edi. U na Payvand qilib, undan huzur halovat beruvchi meva olishni, na daraxt parvarish qilib òstirishni va na òz vaqtida guli hosilga kiraoladigan don sepishni bilardi. Boǵda xas xashak terish bilan xursand edi. Aslida uni boǵbon emas, xahshakchi deyish kerak edi. U shu tarzda zahmat chekib òz umrini òtkazar edi. Yaqin dòstlari unga bu xil samarasiz ishni tashlab, òzingni foydali ish bilan ovut, degan tarzda pand nasihatlar qilar, u esa bularga sira quloq solmas edi. Johil boǵbon bu mashaqqatli, ish bilan shuǵullanishni tark etmadi. Kunlardan bir kun u jòyaklar oralab tok kesib yurganida uni ilon chaqib olibdi.

Bizning e'tiqodimiz ham òzbekcha an'analarimiz ham bizni madaniyatli va tarbiyali, ilmli bòlishga chorlaydi. San'atkorlarning mehnati sahnada kòrinadi, uning qilgan mehnati qarsaklarga loyiq bòlsa, xalqining òzi uni olqishlaydi. Hikoyatda keltirilganidek bizning San'atkorman deb o'ziga nomni olgan kishilarimiz òzini hamisha shu nomga loyiq tutishi va nafaqat sahnada Sahna ortida ham insonlarga òrnak bòlmog'i kerak. Asl san’atkor ustoz-shogird an'analarini yòqotmaslik san'atkorlarning sahna tanlashi, olqish sòrashi, muxlislarga bòlgan munosabatini tòǵirlash kerak. Biz bolalar tuǵilgan vaqtidan musiqani singdiramiz, qanday? deyishingiz mumkin. Bola tuǵilganida uning quloǵiga azon eshittirish keyinchalik uning "Alla" tinglab voyaga yetishi misol bola oladi. Bizning musiqaga bòlgan ehtirojimiz shu qadar baland ekan, nega san'atkorga munosabat unga qòyiladigan mas'uliyat pastroq bòlishi kerak? Haqiqiy san'atkor hamisha olqishga loyiq menimcha.

Bizning xalqimiz ijodkorlarga boy, azaldan san'at fidoiylari istiqomat qiladigan mamlakati hisoblanadi. Biz buyuk ajdodlarimiz izidan borib, buyuk ma'naviyatimiz va San'atimizni saqlab qolgan holda ular qoldirgan "xazina"ni kelgusi avlodga yetkazish bilan birga, òzimiz ham shunday ijod namunalarini yaratishimiz har birimizning

muqaddas burchimiz hisoblanmog’i darkor. San'at olami hech qachon Xato va kamchiliklarni kechirmaydi. "San'atni nonini yeyish uchun tishlar temirdan bòlmoǵi zarur" derdi ustozlarimiz. Bizning xalqimiz san'atkorni chinakam San'atkordan farqlay olgan xolis mutaxasislardir.

Vaqti kelsa Sahna emas ochiq havoda, hattoki chekka-chekka qishloqlarda ham ustozlarimiz xalqqqa òz san'atini namoyish qilib, hattoki urush vaqtlarida askarlarimiz ruhiyatini kòtarish uchun urush bòlayotgan joylarga borib qòshiq aytib Raqs tushgan san'atkor ustozlarimiz bor. Masalan: Tòxtasin Jalilov, Faxriddin Sodiqov, Abdurahmon Xoltojiyev, Turǵun Alimatov, Saodat Qobulova, Mukambara Turǵunboyeva, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Orifxon Hotamov, Berta Davidova, Halima Nosirova kabi buyuk ustoz san'atkorlarimiz shular jumlasidan. Ulardan ba'zilari yashagan davrda ashula aytganda ovozini baland chiqaruvchi mikrafon ham bòlmagan. Shunday ustozlarimizdan: Ma'murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov ustozlarimiz ovozi "Qòng'iroq kabi jarangdor bòlib, yetti mahallagacha eshitilib turgan" degan gaplar chalinadi quloǵimizga. Mana haqiqiy olqishga sazovor insonlarimiz. Bugungi kunda ham bu ijod yòlini davom ettirayotgan kòplab fidoiylarimiz mavjud. Lekin chinakam san'at ijod qilish òrniga San'atni sanoatga aylantirayotgan kishilarni kòrib diling oǵriydi. Xulosa qilib aytganda san'at olqishlarga sazovor bòlmoqqa loyiq bòlmoq, San'atkor nomini pok saqlamoq, hamma òzini san'at ahlining azosi deb hisoblaganlar uchun Muqaddas Burchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bahodir Yòldoshev "Sahna" kitobi, Lison ut-tayr Alisher Navoiy
2. (Hikoyasidan), Sultonali Mannopov Navobaxsh ohanglar kitobi